

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MAXTUMQULI VA OZARBAYJON ADABIYOTI

Sapaeva Feruza Davlatovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat

pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti

kafedrası professori v.b., PhD

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Maxtumquli merosining ozarbayjon tiliga tarjimalari xususida ba’zi qaydlar haqida fikr-mulohaza bildiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** Maxtumquli, she’r, tarjima, o‘zbek tili, ozar tili, shakl, mazmun.*

***Аннотация.** В этой статье дается отзыв о некоторых примечаниях, касающихся переводов наследия Махтумкули на азербайджанский язык.*

***Ключевые слова:** Махтумкули, поэзия, перевод, узбекский язык, азербайджанский язык, форма, содержание.*

***Annotation.** This article will comment on some notes on translations of the heritage of Magtymguly into Azerbaijani.*

***Keywords:** Magtymguly, poetry, translation, Uzbek, Azeri, form, content.*

Turkiy adabiyotning eng yorqin vakillaridan, mumtoz turkman adabiyotining buyuk mutafakkiri va faylasuf-shoiri Maxtumquli o‘zidan ulkan adabiy meros qoldirdi. Maxtumquli merosi yolg‘iz turkman xalqining emas, barcha turkiy ellarning, chunonchi ozarbayjon adabiyotini ham boyitishga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan. Maxtumqulining Ozarbayjonda sevilib, mashhur bo‘lishining sababi uning she’rlarida umumturkiy motivlarning, obrazlar tizimining xalqchil ifoda etganligi bilan ko‘rsatiladi. Uning she’riyati sodda va xalq ko‘ngliga yaqin obrazlar tizimi bilan turkiy ulusning qalbidan mustahkam o‘rin olgan. U turkman she’riyatiga yangi nafas, yangicha tarovat olib kirdi. Maxtumquli katta jasorat bilan turkman adabiyotiga xalq so‘zlashuv tilini hamda xalq she’riyati shakllarini tatbiq qildi. Shuning uchun mashhur rus sharqshunosi Y.E.Bertels Maxtumquli haqida fikr yurita turib, uning ijodini “folklordan adabiyotga o‘ziga xos o‘tish” deb atagan.

O‘lmas she’riyat namunalarini yaratgan shoirning adabiy merosining aksariyati shoir yashagan kezlarda turkiy xalqlar orasida qo‘lyozma holda yoyilgan, xalq xotirasida saqlanib qolgan va avlodan-avlodga o‘tib kelgan.

Ozarbayjon xalqi Maxtumquli merosi bilan XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrlardan tanisha boshlagan. Buning isbotini Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar institutida Maxtumquli asarlarining XIX asrda ko‘chirilgan ikki nodir qo‘lyozma nusxasi bugungi kungacha saqlanib qolganida ham ko‘rish mumkin. XIX va XX asrlarning boshlariga qadar Maxtumquli asarlari

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qo‘lyozma va toshbosma kitoblar orqali ozarbayjonliklar tomonidan asliyatda o‘qilgan hamda tarjimaga ehtiyoj sezilmagan.

Ozarbayjonda Maxtumquli adabiy merosini tarjima qilish ishlari dastlab o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlangan. Bu yo‘nalishdagi ilk tarjimalar taniqli ozar adabiyotshunosi Salmon Mumtoz tomonidan amalga oshirilgan. Salmon Mumtozning bolalik davri Ashxobodda o‘tgan, ilk saboqni ham o‘sha yerda olgan. Salmon yoshlik davridayoq Maxtumquli ijodiga qiziqib qolgan. Keyinchalik u o‘z faoliyatini Ozarbayjonda davom ettirgan va Maxtumquli ijodi haqida o‘zining “Turkman shoirlari” nomli maqolasini yozadi. Maqola 1923-yil “Maorif va madaniyat” jurnalining 8 va 9 sonlarida chop etiladi (1:313-316).

Salmon Mumtozning ushbu maqolasida Maxtumqulining Durdi Shayx bilan topishmoq shaklida, savol-javob ko‘rinishida yozilgan mashhur she‘rini ozarbayjon tiliga moslashtirilgan tarjimada bergan. Ushbu moslashtirilgan she‘riy tarjima Maxtumquli she‘rlarining ozarbayjon tilidagi ilk tarjimasi hisoblanadi. She‘riy misralar quyidagicha tarjima qilingan, **Maxtumquli:**

*Ol nəmədir yemədilər, doydular,
Ol nəmədir uluq günə qoydular,
Ol kim idi dabanından soydular,
Şair olsan, şundan bizə xəbər ber.*

Durdi Shayx: *Ol didardır, yemədilər qoydular,
Ol namazdır qiyamətə qoydular,
Nəsimini dabanından soydular,
Bizdən salam olsun cavab şeylədir (1:315).*

Agar ushbu tarjimadagi she‘riy parchaga e‘tibor qilinsa, unda asl matn bir oz ozarbayjon tiliga moslashtirib berilmoqda. Ushbu she‘riy parcha o‘zbek tilida ham ayrim fonetik farqlarni hisobga olmasa deyarli ayni shaklda keladi. **Maxtumquli:**
Ul nimadir, yemadilar, to‘ydilar?

*Ul nimadir, qiyomatga qo‘ydilar?
Ul kim edi, tovonidan so‘ydilar?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!*

Durdi Shayx: *Ul diydordir, yemadilar, to‘ydilar,
Ul namozdir qiyomatga qo‘ydilar.
Nasimiyning tovonidan so‘ydilar,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir! (2)*

Maxtumquli she‘rlarining ozarbayjon tilidagi birinchi noshiri va tarjimoni Salmon Mumtoz turkiy adabiyot bilan bog‘liq keyingi maqolalarida ham Maxtumquli she‘rlaridan unumli foydalangan hamda ilmiy ishlarida shoir

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

she’rlaridan o‘z tarjimalarini berib borgan. Xususan, uning “Halak” nomli maqolasida *halak* so‘zi Maxtumquli she’rlarida uchrashi qayd etilgan va so‘z qatnashgan she’riy parcha ham ozarbayjoncha tarjimada keltirilgan:

*Dik t p d n olmaz b y k minar ,
Yaman h l k d  ss , bir yax t   r ,
Ba ın k sib, qanın t k b k nar ,
Ya  ld r b, ya da satmaq olmayır (3:368).*

Salmon Mumtoz tarjimalaridan keyin bir muddat Ozarbayjonda Maxtumquli she’rlarining tarjimalari to‘xtab qoldi. Faqatgina, 1956-yilga kelib professor Panah Xalilov mualliflik qilgan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “SSSR xalqlari adabiyoti” darsligida Maxtumqulining “Basqin”, “S d t qu u”, “On iki n sih t” va “Bir axında birl  in” nomli to‘rtta she’rining ozarbayjon tilidagi tarjimasi berilgan (4:389-399).

Ozarbayjonda tom ma’noda Maxtumquli she’rlarini tarjima qilish ishlari 1960-yilga kelib keng quloq yozdi. Ayni shu yili shoir tavalludining 225 yilligi nishonlandi. Yubiley munosabati bilan Maxtumqulining sara she’rlari ozar tiliga o‘girilib kitob holida chop etildi. She’rlarni o‘sha davrning taniqli shoirlari – Ismoil Sulton, Odil Boboyev, Tofiq Mutallibov, Aliakbar Ziyotay, Husayn Abbaszoda, Aliog‘a Kurchayli, Ali Karim, Navro‘z Ganjali singari ijodkorlar tarjima qilgan edi (5). Keyinchalik ushbu kitobga kirgan she’rlar tarjimasi haqida professor Panax Xalilov shunday yozgan: “bunlarning b zisi  slind n t rc m  edils  d , t rc m  il r orijinalı b z n d zg n ba a d  m y r k t hrif  yol vermi ler. S tri t r-c m y   saslanan b di t rc m l rin d   slin  uy unlu u azdır”. Ya’ni: “she’rlarning ba’zilari asliyatdan tarjima qilingan bo‘lsa-da, tarjimonlar ba’zan asl matnni noto‘g‘ri tushunib, buzib o‘girishgan. Satrma-satr tarjimaga asoslangan badiiy tarjimalar ham asl nusxaga mos kelmaydi” (6:9). Bu mulohazalardan tarjimaning saviyasi yuqori darajada bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin. Lekin tarjimalarning saviyasiga qaramasdan bu saylanma Maxtumquli ijodining Ozarbayjondagi keyingi tarjimalari uchun katta turtki bo‘lib xizmat qildi.

Maxtumquli she’rlarining ozar tilidagi keyingi tarjimalari o‘tgan asrning 80 yillaridan boshlandi. Bu borada turkman adabiyotining taniqli tadqiqotchisi Faxriddin Aliyev xizmatlari alohida o‘ringa ega. U Maxtumquli she’rlaridan namunalarni ozarbayjon tiliga tarjima qilib, 1983-yilda kitob holida nashr ettirdi (6). Yana shu yili atoqli tarjimon Ahad Muxtor shoirning beshta she’rini ozar tiliga o‘girib “Ozarbayjon” jurnalida chop ettirdi (7:169-172).

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

1984-yilga kelib professor Ismoil Valiyev Maxtumqulining 102 dona she’rini ozarbayjon tiliga tarjima qilib, “Qəm seli (G‘am seli)” nomi bilan kitob holida nashr ettirdi (10).

XX asrning 90-yillaridan keyin ikki xalqning mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tgani adabiy hamkorlik masalasida katta istiqbol eshiklarini ochdi. Maxtumquli ijodi ko‘plab she’riy antologiyalardan o‘rin oldi. Jumladan, atoqli ozarbayjon adibi Anor tomonidan 1999-yilda tuzilib nashr etilgan “Min beş yüz ilin oğuz şeiri (Bir ming besh yuz yillik o‘g‘uz she’riyati)” kitobida Maxtumqulining 17 she’ri kiritilgan (9:331-343).

XXI asr boshlari Ozarbayjonda Maxtumquli she’rlarining ozar tiliga tarjima qilishda yangi bosqich sanaladi. Ayniqsa bu borada Feruza Ahmadovanning xizmatlari katta ahamiyatga ega. U 2006-yilda “She’rlar” deb atalgan kitobga shoirning 162 she’rini kiritdi (10:168). 2007-yilda esa akademik Nizomiy Jafarov “Turk xalqlari adabiyoti” nomli to‘rt jildlik to‘plamini nashr ettirdi. Turkiy ijodkorlar qamrab olingan ushbu to‘planning uchinchi kitobiga Maxtumquli ijodidan 24 she’r to‘plamga kiritildi (11:122-146).

2010-yilda esa taniqli olim Ramiz Askar Maxtumquli she’rlarini ozarbayjon tiliga o‘girib alohida kitob holida nashr ettirdi (12). “Tanlangan asarlar” nomi bilan nashr etilgan ushbu tarjima kitobi Maxtumqulining Ozarbayjonda mustaqillik yillarida nashr etilgan ilk yirik tarjima asaridir.

2014-yilga kelib xalqaro TURKSOY tashkiloti “Maxtumquli Firoqiy yili”ni nishonlash haqida qaror qabul qildi. Bu esa shoir ijodini keng doirada tarjima va targ‘ib qilish uchun katta ufqlar ochdi. Jumladan, yirik tarjimon Ismixon Usmonli shoirning 400 ga yaqin she’rlarini aslyatdan ozar tiliga tarjima qilib chiqardi. Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti xodimi Ismixon Usmonli tomonidan tarjima qilingan Maxtumqulining “Tanlangan asarlari” Ozarbayjon ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuqori baholandi.

2014-yilda Ozarbayjonda Maxtumquli she’rlari tarjimasida yangi bir sahifa ochildi. Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Muhammad Fuzuliy nomidagi Qo‘lyozmalar instituti fondidan shoirning toshbosma usulda nashr etilgan yangi she’riy devoni topildi. Devon matnini Ismixon Usmonli turkman tilidan ozarbayjon tiliga tarjima qililib, izoh va lug‘ati bilan nashrga tayyorladi. 189 she’rdan iborat ushbu tadqiqot 2015-yilda nashrdan chiqdi.

Kitobda ijodkorning hozirgacha nashr etilgan kitoblarida kirmagan qator she’rlar ham o‘rin olgan. Bu esa kitobni Maxtumquli ijodini yana to‘ldiradigan va boyitgan muhim adabiy voqealikka aylantirdi.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Umuman, turkman adabiyotining buyuk ijodkori Maxtumluli asarlarini ozar tiliga tarjima etish qariyb bir asrlik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Shoir she‘rlarining ozar tilidagi tarjimalarini Ozarbayjonning mustaqillikkacha va mustaqillik davrdagi tarjimalar sifatida ikki katta davrga ajratish mumkin bo‘ladi. Shoir asarlari tarjimasi borasida ozarbayjon olimlari katta ilmiy natijalarni qo‘lga kiritdi va hozirga qadar Maxtumlulining boy merosini o‘rganish va tarjima etish ishlari izchil davom etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Mümtaz S. Türkmən şairləri. “Maarif və mədəniyyət” jurnalı, 1923, №8-9.
2. <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/120>
3. Mümtaz S. Azərbaycan ədəbiyyatının qaynaqları. Tərtib edəni: f.e.n. Rasim Tağıyev. Bakı, “Yazıçı”, 1986.
4. SSRİ xalqları ədəbiyyatı müntəxəbatı. Tərtib edəni: Pənah Xəlilov. Bakı, Azərbaycan Dövlət Universitetinin nəşriyyatı, 1956.
5. Məxdumqulu. Şeirlər. Müqəddimə A.Dadaşzadəninindir. Redaktoru İ.Soltan. Bakı, Azərbaycan Dövlət Nəşriyyatı, 1960.
6. Xəlilov P. İki əsrin poeziyası. Klassik türkmən şeiri. Tərcümə edəni: Fəxrəddin Əliyev. Ön sözün müəllifi: Pənah Xəlilov. Bədii redaktoru: A.Məmmədov. Bakı, “Yazıçı”, 1983.
7. Muxtar Ə. Vətən diləkli şair. “Azərbaycan” jurnalı, 1983, № 11.
8. Fəraqi M. Qəm seli. Türkməncədən çevirmə və tərtib: İsmayıl Vəliyev, ön söz: P.Xəlilov. Bakı, “Yazıçı”, 1984.
9. Min beş yüz ilin oğuz şeiri. Antologiya. İki cildə, I kitab. Şeir mətnlərinin, müəlliflər və əsərlər haqqında məlumatların, lüğətin tərtibçisi, ön və son sözlərin müəllifi Anar. Bakı, “Azərbaycan”, 1999.
10. Məxdumqulu. Şeirlər. Tərtib edəni, ön sözün müəllifi: Firuzə Əhmədova. Bakı, “Elm”, 2006.
11. Cəfərov N. Türk xalqları ədəbiyyatı. Yeni dövr, III kitab. Bakı, “Çaşıoğlu”, 2007.
12. Fəraqi M. Seçilmiş əsərləri. Tərtib edən, türkməncədən uyğunlaşdırın və ön sözün müəllifi: Ramiz Əskər. Redaktoru Əli Şamil. Bakı-Ankara, TÜRKSÖY nəşri, 2010.